

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
TEXNIKA UNIVERSITETI**

«Falsafa» (Etika) fanining

**“OILANING ILK AXLOQIY MASKAN
SIFATIDAGI O‘RNI”**

mavzui yuzasidan ma‘ruzalar o‘qish bo‘yicha

USLUBIY QO‘LLANMA

Toshkent 2014

«Falsafa» (Etika) fanining “Oilaning ilk axloqiy maskan sifatidagi o‘rni” mavzui yuzasidan ma’ruzalar o‘qish bo‘yicha uslubiy qo‘llanma. Primova F.A. –T.: ToshDTU, 2014. – 27b.

Barkamol avlod tarbiyasini izchil amalga oshirishda oila muhim rol o‘ynaydi. Inson axloqiy, ma’naviy va ruhiy qiyofasining poydevori oilada qo‘yiladi.

Ma’lumki, mamlakatimizda har bir oilani, ayniqsa, endigina shakllanayotgan yosh oilalar ildizini mustahkamlash – ularni axloqan, ruhan va huquqan kamol toptirish va shu asosda fuqarolik jamiyati quruvchilarini tarbiyalash muhim vazifa etib belgilangan. Ushbu vazifa ijrosini ta’minlashda biz, gumanitar fanlar o‘qituvchilari mas’ulmiz. Shuni hisobga olib, mazkur uslubiy qo‘llanmada oila, farzand tarbiyasi, oilaviy munosabatlar, oilaviy mulk masalalarini tahlil qilishga jazm etdik.

Ushbu uslubiy qo‘llanma axloqshunoslik fani o‘qituvchilari, soha mutaxassislari, oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun mo‘ljallangan.

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti ilmiy-uslubiy kengashi qaroriga binoan bosishga ruxsat etildi.

Mas’ul muharrir:

Falsafa fanlari nomzodi D.X.Islomova.

Taqrizchilar:

Falsafa fanlari nomzodi Z.A.Bozorboyeva.

Katta o‘qituvchi S.M.Askarxodjayev.

Kirish

«Falsafa» (Etika) fanining “Oila, fuqarolik jamiyati va davlatning axloqiy asoslari hamda shaxs axloqiy tarbiyasi” deb nomlangan 10-bobining 1-mavzui “Oilaning ilk axloqiy maskan sifatidagi o‘rni”, deb nomlanadi.

O‘qituvchi mazkur oila mavzuini yoritishdan oldin darsni tashkil etish va o‘qitish metodikasini aniqlab olishi lozim. Shu bois o‘qituvchi, dastavval, darsning ta’limiy, tarbiyaviy va darsni rivojlantiruvchi maqsadlariga oydinlik kiritishi, dars jihozlari va darsda qo‘llanadigan metodlarni tanlab olishi shart. Biz bu borada quyidagilarni tavsiya etamiz:

Darsning ta’limiy maqsadi: talabalar ongiga oila, xususan, oilaning tarixiy ildizlari, oilaviy tarbiya nimalardan iboratligini yanada kengroq singdirish va ularni oila qurishga tayyorlash.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: talabalarni oilaga mehr-muruvvatli etib tarbiyalash, oilani asrab-avaylash uchun kurashishga odatlantirish.

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: talabalarning oila to‘g‘risidagi bilimlarini va dunyoqarashlarini kengaytirish, mustaqil fikrlashga o‘rgatish.

Darsning jihozlari: oila tarbiyasi to‘g‘risidagi chizmalari, slaydli ko‘rgazmalar, yozma pandnomalar, darsliklar va oila mavzusida rasmi va izohli taqdimotnomalar.

Darsning borishi:

- vaqtdan unumli foydalanish, o‘zgalar fikrini qadrlash, bir-birini hurmat qilish, yangilik kiritishga harakat qilish, faol ishtirok etish.
- mavzu to‘g‘risida o‘qituvchi tomonidan to‘liq tushuncha berish.

Darsda qo‘llanadigan uslub: ma’ruza o‘qish, suhbatlashish, «Klaster» interfaol usul va «Aqliy hujum» metodi, test savollari.

Shu tariqa biz darsning maqsadlarini, jihozlarini va uslubini aniqlab oldik. Lekin «Klaster» interfaol usuli va «Aqliy hujum» metodi nimani anglatadi, degan savol ochiqsigicha qoldi. Shu bois ushbu uslublar haqida qisqacha to‘xtalib o‘tishni lozim topdik. «Klaster» uslubi (metodi) talabalarning dars o‘tilayotgan mavzu bo‘yicha erkin, ochiq o‘ylash va o‘z fikrini bemalol, hech bir to‘siqlarsiz bayon etishi uchun o‘qituvchi tomonidan shart-sharoitlar yaratib berishda yordam ko‘rsatishni o‘z ichiga oladi. Bu uslubdan talabalar bilan yakka tartibda yoki guruh asosida tashkil etiladigan mashg‘ulotlarda foydalanish yaxshi samara beradi.

“Klaster” usulidan foydalanishda quyidagi shartlarga rioya etish talab etiladi:

1. Nimani o'ylagan bo'lsangiz, shuni qog'ozga yozing. Fikringizning aniqligi to'g'risida o'ylab o'tirmay ularni shunchaki yozib boring.

2. Belgilangan vaqt nihoyasiga yetmagunicha yozishdan to'xtamang. Agar ma'lum muddat biror-bir g'oyani o'ylay olmasangiz, u holda qog'ozga biror narsaning rasmini chiza boshlang. Bu harakatni yangi g'oya tug'ilguniga qadar davom ettiring.

3. Yozuvingizning orfografik yoki boshqa jihatlariga e'tibor bermang (chunki bunga e'tibor qaratsangiz fikringiz chalkashib ketishi ehtimoli bor).

4. Muayyan tushuncha doirasi imkon qadar ko'proq yangi g'oyalarni ilgari suring hamda mazkur g'oyalar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik va bog'liqlikni ko'rsatishga harakat qiling. G'oyalar yig'indisining sifati va ular o'rtasidagi aloqalarni ko'rsatishni cheklamang.

«Aqliy hujum» metodi ham «Klaster» usuliga yaqin bo'lib, bu metoddan oila to'g'risidagi mavzu bo'yicha yuzaga kelgan muammolarni hal etishda qo'llash mumkin. Bu metod talabalarni muammo xususida keng va har tomonlama fikr yuritish, o'z tasavvurlari va g'oyalaridan ijobiy foydalanish borasida ma'lum ko'nikma hamda malakalarni hosil qilishga rag'batlantiradi. Mazkur metod oila borasidagi muammolarning yechimini topishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois biz "Oilaning ilk axloqiy maskan sifatidagi o'rne" mavzusini yoritishda «Klaster» usuli hamda «Aqliy hujum» metodlardan alohida-alohida, kezi kelganda aralashma tarzda foydalanishni taklif etamiz.

Oila, uning muqaddasligi haqida talabalarda keng tushuncha hosil qilish, oilaning maqsad va vazifalari, rivojlanish tarixi hamda oilaning huquqiy asoslarini barchaning ongiga singdirish uchun, avvalambor, o'qituvchi oila milliy va umuminsoniy qadriyatlar tizimining eng muhim bo'lagini tashkil qilishini talabalar ongiga singdirishi lozim.

Ma'lumki, har bir mamlakat poydevori unda mavjud bo'lgan oilalarning mustahkamligi, huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy himoyalanganligi, ma'naviy kamoloti bilan xarakterlanadi. Erkin, demokratik, huquqiy davlatlarda oila har tomonlama ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan himoyalansa-da, ammo uning ma'naviy kamolotiga turlicha ta'sir ko'rsatiladi. Vatanimizda zamonaviylik va milliylikning sharqona uyg'unligini o'zida mujassam etgan oilalarni kamol toptirish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash siyosati ilgari surilmoqdaki, bu o'zining maftunkorligi, jozibadorligi, ma'naviy, iqtisodiy, ijtimoiy yetukligi bilan butun dunyo hamjamiyatini lol qoldirmoqda. Aynan shu g'oyani yorqin misollar asosida talabalar ongiga

singdirish tolibi ilmlarda o'zbek oilalariga bo'lgan mehr-muhabbatni yuksaltiradi, bu holat, o'z navbatida, dars samaradorligini oshiradi.

Vatanimizda mustaqilikka erishgan ilk kunlardan boshlab davlatimiz rahbari rahnamoligida oilalar huquq va manfaatlari ustuvorligiga erishish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari darajasiga ko'tarilganligi bugungi kunda respublikamizda oilalarni mustahkamlash, uning huquq va manfaatlarini muhofaza qilish, uning har bir a'zosi mehnat faoliyati, bilim olishlari uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratish, onalik va bolalikni muhofaza qilish borasida mustahkam huquqiy negiz yaratilishini ta'minladi.

Oila haqidagi umuminsoniylik tuyg'usi faqat o'z xalqi qadriyatlarini ardoqlash, ko'z-ko'z qilishgagina asoslanmaydi. Balki bu qadriyat har bir xalq, elat, urug' va oilani hurmat qilishdan boshlanadi.

Istiqlolga erishish mamlakatimizda yashaydigan barcha millatlarning oila to'g'risidagi qadriyatlarini saqlash va takomillashtirish uchun katta imkoniyatlar eshigini ochib berdi. Yurtimizda yashovchi har bir fuqaro oilani asrab-avaylash uchun kurashmoqda. Bu jarayonda oila to'g'risidagi umuminsoniy va milliy jihatlarining uyg'unligini ta'minlash ehtiyoji qadriyatlar omilidan yanada unumli foydalanishni zaruriyatga aylantiradi.

Turli avlodga mansub yoshlar qiyofasida umumiy o'xshash tomonlar mavjud. Bu ularning ongi va tasavvuri, dunyoqarashi, mayl va istaklari o'zbek millatiga xos oilalarni bunyod etish maqsadlari bilan mushtarak bo'lib borayotganligi bilan xarakterlanadi. Biz o'qituvchilardan, "Oilaning ilk axloqiy maskan sifatidagi o'rni" mavzusini yoritishimizda mana shu mushtaraklikni yanada takomillashtirish talab etiladi. Shu bois o'qituvchi dars mobaynida ushbu masalalarga alohida e'tibor qaratmog'i lozim, deb hisoblaymiz.

O'qituvchi talabalarga oilalarni yanada mustahkamlash, uning har bir azosiga e'tiborli bo'lish barcha xalqlarning eng ulug'vor maqsadlaridan birini tashkil etishini yorqin misollarda tushuntirishi maqsadga muvofiqdir.

Oila va farzand tarbiyasi muammosi

O'qituvchi mavzuni yoritishda, dastavval, ayni paytda O'zbekiston aholisi va oilalar sonini, oila tarbiyasining tarixiy ildizlarini, o'zbekona tarbiyaning amaliyotga tatbiq etish jarayonlarini chuqur tahlil qilishi maqsadga muvofiq. Shu bois biz ham bu borada kengroq to'xtalib o'tishni lozim topdik.

Bugungi kunda O‘zbekistonda 29 milliondan ortiqroq aholi yashaydi, shulardan 52 foizini xotin-qizlar, jami aholining 48 foizini 18 yoshgacha bo‘lgan yigit-qizlar tashkil etadi. Respublikamizda har yili 170 mingdan ko‘proq nikoh rasmiylashtiriladi. Vatanimizda 7 milliondan ortiq oilalar mavjud.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning ta’biricha, “Oila jamiyatning negizi. Bizning davlatimizni ham katta bir oila deb tushunish mumkin va lozim. Bunda o‘zaro hurmat va qattiq tartib bo‘lmasa, oilaning barcha a’zolari o‘z burchlarini ado etmasa, bir-birlariga nisbatan ezgulik bilan mehr-oqibat ko‘rsatmasa, yaxshi va munosib yashash mumkin emas. Oila ko‘ngil mayli va vijdon asosida quriladi, o‘zining ko‘p asrlik mustahkam va ma’naviy tayanchlariga ega bo‘ladi, oilada demokratik negizlarga asos solinadi, odamlarning talab-ehtiyojlari va qadriyatlari shakllanadi. O‘zbeklarning aksariyati o‘zining shaxsiy farovonligi to‘g‘risida emas, balki oilasining, qarindosh-urug‘lari va yaqin odamlarining, qo‘shnilarning omon-esonligi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishni birinchi o‘ringa qo‘yadi. Bu esa eng oliy darajada ma’naviy qadriyat, inson qalbining gavharidir”¹.

Oila muammosi va tarbiyasi juda uzoq tarixiy ildizga ega. Xalq og‘zaki hamda yozma yodgorliklari bo‘lmish maqol, hikmat, ertak, rivoyat, aytishuvlarda oila, ota-ona, oilaviy barqarorlik, o‘zaro munosabat masalasiga alohida e’tibor qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov: «Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch» asarida “Har qaysi millatning o‘ziga xos ma’naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, hech shubhasiz, oilaning o‘rni va ta’siri beqiyosdir. Chunki insonning eng sof va pokiza tuyg‘ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag‘rida shakllanadi. Bolaning xarakterini, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan ma’naviy mezon va qarashlar – yaxshilik va ezgulik, olijanoblik va mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila sharoitida qaror topishi tabiiydir²” deb oilaga ta’rif beradi.

Darhaqiqat, oilaning jamiyatdagi mavqei beqiyosdir. Tilimizda oilani vatan ma’nosida, ya’ni vatan qilmoq – oila qurmoq, oilali bo‘lmoq ma’nosida ham qo‘llaymiz. Demak oila vatan ichidagi vatandir. Oila inson ma’naviyatini shakllantiradigan mezon, jamiyat taraqqiyotini yuksaltiradigan omil, demografik, etnografik an’analarni davom ettiradigan makon sifatida ulug‘ qadriyatdir.

¹ Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли. Т.: Ўзбекистон, 1992. -21-б.

² Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. Т.: Маънавият, 2008. -75-б.

Prezidentimizning ta'biricha, "Xalqimiz tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, eng qimmatli an'analar: halollik, rostgo'ylik, or-nomus, sharmu hayo, mehru oqibat, mehnatsevarlik kabi barcha insoniy fazilatlar, eng avvalo, oilada shakllanadi"¹ Darhaqiqat, o'zbek oilasining mustahkamlik va uzoq yashovchanlik siri va saodati aynan o'zbek oilasining ma'naviy yuksakligidadir. Shu bilan birga oila murakkab va serqirra hodisadir. Har bir oilada oila yuritish xilma-xillikda kechadi. Ammo barcha o'zbek oilalarida umumiy tamoyillarimiz, an'alarimiz, urf-odatlarimiz kabi muqaddas qadriyatlarimiz barhayotdir.

Istiqlolning dastlabki yillaridan boshlab oila qadriyatini anglash, uni ijtimoiy muhofaza qilish va mustahkamligini ta'minlash borasida mislsiz ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Prezidentimiz tomonidan oilalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan farmon va qarorlar qabul qilinib, hayotga tatbiq qilinganligi oila institutini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biriga aylanganligidan darak beradi. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, Prezidentimiz tashabbusi bilan yuksak mukofot – "Sog'lom avlod uchun" ordenining ta'sis qilinganligi oila institutiga bo'lgan e'tiborning yana bir yaqqol tasdig'idir. Yurtboshimiz tomonidan 2012 yilga "Mustahkam oila yili", deb nom berilishining zamirida ham oila – jamiyat tayanchi, oila farovonligi –milliy farovonlik asosi, xalq farovonligi, mamlakat tinchligi, oilalar mustahkamligi va yosh avlodni komil inson etib tarbiyalashdek ezgu maqsadlar mujassam, desak yanglishmaymiz.

Dunyodagi barcha xalqlar oila qurib yashaydi, ammo unga munosabat turlicha. Oilani ba'zilar – zurriyotni davom ettirish vositasi deb qarasa, boshqalar erkin muhabbat deb biladi, uchinchi toifadagi kishilar esa mulkiy munosabatni ifoda etadigan er-xotin ittifoqi, yana biri – ko'payish, yaratish, yashashning makoni deb e'tirof etadi. O'zbek oilasi esa barcha yaxshi fazilatlarni o'zida mujassam etgan tarbiya maskanidir. Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek: "Sharqda qadim-qadimdan oila muqaddas Vatan sanalgan. Agar oila sog'lom va mustahkam bo'lsa, mahallada tinchlik va hamjihatlikka erishiladi. Binobarin, mahalla – yurt mustahkam bo'lsagina, davlatda osoyishtalik va barqarorlik hukm suradi"² YOxud "Bu yorug' dunyoda hayot bor ekan, oila bor. Oila bor ekan,

¹ Каримов И.А. Ўзбекистоннинг сиёсий- ижтимоий ва иқтисодий истиқлолининг асосий тамойиллари. Т.: Ўзбекистон, 1999. -12-13-б.

² Каримов И.А. Ўзбекистоннинг сиёсий- ижтимоий ва иқтисодий истиқлолининг асосий тамойиллари. Т.: Ўзбекистон, 1999. -18-б.

farzand deb atalmish bebaho ne'mat bor. Farzand bor ekan, odamzot hamisha ezgu orzu va intilishlar bilan yashaydi"¹.

Abdurauf Fitrat insonlarning davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi, zaif bo'lib xorlikka tushishi, faqirlik jomasini kiyib, baxtsizlik yukini tortib e'tibordan qolishi, o'zgalarga tobe, qul va asir bo'lishi bolalikdan o'z ota-onalaridan olgan tarbiyalariga bog'liq, deb hisoblaydi. Darhaqiqat, farzandlarini ma'naviyatli qilib tarbiyalash ota-onaning birinchi navbatdagi vazifasidir. Yusuf Xos Hojib aytadki, oilaviy tarbiya – bolalarning axloqiy qiyofasini shakllantirishda eng asosiy omildir. «Mabodo bolalarning xulq-atvori yomon bo'lsa, bunda gap bolada emas, ota aybdor»². Xalqimiz, «Nima eksang, shuni o'rasan», deganidek farzandimizning yaxshi, yomon, ma'naviyatli yoki ma'naviyatsiz bo'lishi ko'pincha biz, ota-onalarga bog'liq.

Ta'lim-tarbiya tarixiga nazar tashlar ekanmiz, o'tmish ma'rifiy merosimizda eng muhim masala – inson masalasi, uni yetuk qilib tarbiyalash muammosi hamisha dolzarb bo'lib kelganiga amin bo'lamiz. O'zbekistonning chinakam mustaqillikka erishishida va uni yanada rivojlantirishda Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, avvalo, aholining milliy-tarixiy turmush va tafakkur tarzidan, oilaviy sharoitidan, xalq an'analari va urf-odatlaridan kelib chiqish lozim. Shu bois o'zbek xalqining kattalarni hurmat qilish, ochiq ko'ngillik, millatidan qat'i nazar, odamlarga xayrixohlik munosabatida bo'lish kabi qadriyatlarni o'rganish muhim kasb etadi. Chunki xalqimizning o'z diyoriga, mehnatga, bilim olishga, ustozlarga, ma'rifatparvarlarga nisbatan alohida hurmat-ehtirom ko'rsatishi Sharq xalqlariga, jumladan, o'zbek xalqiga xos xususiyatdir.

Aslini olganda bolaga tarbiya berish vazifasi onaga qaraganda, ko'proq, ota zimmasida bo'ladi. Bu oilada tarbiyaning asosini tashkil etuvchi oltin qoidadir. Otaning oilani moddiy ta'minlash uchun mehnat qilishi uning farzandi bilan muloqotda bo'lishini chegaralab qo'yish bilan birga, chegaralangan vaqtini oila ehtiyojlari bilan bog'liq ishlarga sarf qilib, oilasi va farzandlariga berishi kerak bo'lgan tarbiyani to'laqonli amalga oshira olmasligiga sabab bo'ladi. Natijada tarbiyada bo'shliq paydo bo'ladi va bu bo'shliqni to'ldirish onaning zimmasiga tushadi. Ona yolg'iz boshiga ta'lim-tarbiyadagi bo'shliqni bartaraf etishga xarchand harakat qilmasin, bu ishning uddasidan chiqishi qiyin kechadi, chunki onaning zimmasida bola tarbiyasidan boshqa yumushlar ham to'lib-toshib yotibdi. Natijada bola hayot saboqlarini do'stlari va boshqa manbalardan,

¹ Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. Т.: Маънавият, 2008. -56-б.

² Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. Т.: Фан, 1972. -233-б.

masalan, televizor, internet tarmoqlaridan o'rganadi. Oqibatda bola otanasi orzu qilgandek inson bo'lolmaydi, u turli ruhiy muammolarga duch keladi va hayot tashvishlari oldida o'zini yo'qotib qo'yadi. Shu bois otana bola tarbiyasiga alohida e'tibor berib, bu ishni o'zining birinchi galdagi vazifasi, burchi deb bilmog'i shart, deb hisoblaymiz.

Tarbiyani to'g'ri tashkil etish natijasida mustaqil hayotga qadam qo'yayotgan yigit-qizlarda quyidagi xususiyatlar mujassam bo'lishiga erishishimiz lozim:

Birinchidan, ular hayotdagi o'zgarishlarni chuqur his etishlari va turli xil voqealarni idrok etishlari hamda bozor iqtisodiyoti, o'zaro raqobat muhiti talablariga javob bera olishlari;

Ikkinchidan, kelajak avlod oldidagi ijtimoiy mas'uliyatni chuqur anglab yetishlari;

Uchinchidan, mustaqil fikrga va fikrlash madaniyatiga ega bo'lishlari;

To'rtinchidan, yangi ixtirolar, kashfiyotlar qilishga, izlanishga moyil bo'lishlari hamda tadbirkorlik falsafasini puxta egallab olishlari;

Beshinchidan, hayot falsafasini to'g'ri anglashlarni;

Oltinchidan, har bir ishda milliy manfaatlarimiz ustuvorligi tamoyiliga amal qilishlari;

Yettinchidan, axloqsiz ko'rinishlardagi salbiy unsurlarni qabul qilmasliklari va ularga nisbatan murosasiz bo'lishlari;

Sakkizinchidan, o'zlarining vatanparvarlik fazilatlarini bilan mustaqilligimizni mustahkamlash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga munosib hissa qo'shishlari zarur.

Agar o'spirin yuqorida sanab o'tilgan xususiyatlarga ega bo'lmas ekan, demakki, olib borilgan tarbiyaning samarasi ko'ngildagidek bo'lmagan.

Afrikada bir qabila bor. Ularda yalang'och yurish "madaniyat" hisoblandi. Negadir keyingi paytlarda dunyoning barcha hududlarida shu qabiladan "o'rnak" olish, yarim yalang'och yurish odat tusiga kirib bormoqda. Hatto yaqinda Avstraliyada bir guruh "aqliraso"lar yalang'och holda namoyish o'tkazishib, barchani kiyimsiz yurishga da'vat etishdi.

Avval g'arbda ham oila muqaddas dargoh deb hisoblangan. Hozirda bu munosabat salbiy tomonga o'zgardi. Nazarimda oilaga g'arbana «erkinlik» martabasining berilishi xulq-atvor, kiyinish madaniyatida ham salbiy holatlarning yuzaga kelishiga olib keldi. Hozirgi kunda Yevropa mamlakatlarida qonun yo'li bilan erkakning erkak bilan «oila» qurishiga va ularga bola boqib olishiga ruxsat berish, oila qurmay yakka-yolg'iz

yashash, muhabbat “erkinligiga” erishish kabi insoniylikdan yiroq g‘oyalar ilgari surilmoqda. Qolaversa, o‘zini rivojlangan davlat sanayotgan bir qator mamlakatlarda «Chayld fri» harakati yuzaga kelmoqda. Taniqli olim Vladimir Nirkoning Rossiyada chop etiladigan «Trud-7» gazetasidagi «Bolalar otalarga qarshi» nomli maqolasida ta’kidlashicha, Amerika Qo‘shma Shtatlarida vujudga kelgan bunday harakat Rossiya Federatsiyasi bo‘ylab ham quloq yoymoqda.

Ho‘sh, «Chayld fri» harakatining maqsad-muddaosi nima, uning oqibatlari nimalarga olib keladi?

«Chayld fri» inglizcha so‘z bo‘lib, bolalardan ozod bo‘lish, degan ma’noni anglatadi. Bu harakat vakillari “farzandsiz jamiyat sari”, degan bema’ni g‘oyani ilgari suradilar. Ularning nazarida bola ota-ona uchun muammodan boshqa narsa keltirmaydi, bu o‘tkinchi dunyoda har kim o‘zi uchun yashashi, farzand tashvishini unutishi, buning uchun esa farzandsiz jamiyat sari yuzlanishi lozim emish¹. Endi bu harakat ommaviy tus olsa nimalar sodir bo‘lishini bir tasavvur qilib ko‘ring, buni o‘ylashning, tasavvurga sig‘dirishning o‘zi dahshat emasmi?!

Aslini olganda farzandsiz oila – millatning fojiasi. Evropadagi ayrim olimlar o‘z millatlarining taqdiridan tashvishlanib, ko‘payish sur’ati ko‘p bo‘lgan mamlakatlarda tug‘ilishni kamaytirish choralari ko‘rishga harakat qilmoqdalar. SHu niyatda ular turli xalqaro anjumanlar o‘tkazishib, xalqaro bitimlar, qarorlar imzolashga, o‘zga mamlakatlarning ichki masalalariga aralashishga harakat qiladilar. Aslini olganda, jamiyatning asosi bo‘lmish oila institutini yanada mustahkamlash va rivojlantirish, oilalarni, ayniqsa, yosh oilalarni huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish hamda qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish borasida olib borilayotgan barcha ishlarni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, jismonan sog‘lom, ma’naviy yetuk va har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalashda oilaning rolini oshirish, mustahkam, sog‘lom oilani shakllantirish dunyo hajjamiyatining eng asosiy vazifasi bo‘lmog‘i, bu ishga hech qachon loqaydlik bilan munosabatda bo‘linmasligi shart. Chunki «Oila sog‘lom ekan — jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan — mamlakat barqaror»² bo‘ladi.

Bizning nazarimizda inson ma’naviy kamolotining oltita ulug‘ ma’naviy qadriyati mavjud. Bular - Vatan, Oila, Shaxs, Millat, Adolat, Haqiqat bo‘lib, ularni Inson ruhining Borliq haqiqati bilan uyg‘unlashuv

¹ Нырков В. “Дети против отцов”, “Труд-7” 2011 г. 21 июль.

² “Мустахкам оила йили” давлат дастури тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори. “Халқ сўзи” газетаси, 2012 йил 28 февраль.

bosqichlari sifatida ta'riflash mumkin. Bularning har biri "Men o'zbekman" deganning tilida va dilida sobit bo'lgan millat ma'naviyatining bosh tayanchlari, shu bilan bir paytda ularning har biri alohida bir tizim, murakkab ichki mundarijali ma'naviy timsoltushunchalardir.

Mustahkam oilani kamol toptirishning eng muhim yo'nalishlarini talabalarga tushuntirib berish lozim, bu yo'nalishlar quyidagilardan iborat:

- bugungi kun talablarini hisobga olgan holda qonunchilik va normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish, amaldagi qonun hujjatlariga oila institutini rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan zarur o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, yangi qonunlar, qoida va me'yorlarni ishlab chiqish, bu masalaga jamiyatimiz e'tiborini yanada kuchaytirish;

- yosh oilalarga e'tibor va g'amxo'rlikni kuchaytirish, ularni huquqiy va ijtimoiy himoya qilishni ta'minlash, moddiy va ma'naviy jihatdan keng qo'llab-quvvatlash, shu jumladan qulay va shinam uy-joy bilan ta'minlash, zarur imtiyoz va afzalliklar berish;

- jamiyatimiz va kundalik hayotimizda mahalla institutining rolini yanada kuchaytirish va maqomini oshirish, Mustahkam oila yili maqsad va vazifalarini hayotga tatbiq etishda mahalla va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari ahamiyatini, yosh oilalarni qo'llab-quvvatlash hamda shakllantirishda ularning ta'sirini kuchaytirish, yosh oilalarga zarur ko'mak va yordam berish;

- oila, birinchi navbatda, ehtiyojmand oilalarning muammolarini hal etishda davlat va jamiyat tomonidan g'amxo'rlikni yanada kuchaytirish, ularga moddiy yordam ko'rsatish va farzandlarni tarbiyalashda ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, munosib ijtimoiy-maishiy sharoitlar yaratish, bunda oilani mustahkamlashda asosiy yukni o'z yelkasiga olgan ayollarga alohida e'tibor qaratish;

- «Sog'lom ona – sog'lom farzand» tamoyiliga muvofiq oila salomatligini, onalik va bolalikni muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirish;

- jamiyatimizning ma'naviy negizlarini yanada rivojlantirish, azaliy milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va mustahkamlash, jamiyatimizda yuksak ma'naviy muhitni keng qaror toptirish, milliy mentalitetimizga mutlaqo yot bo'lgan va kuchayib borayotgan turli xil zararli ta'sirlarga qarshi turishda oilaning o'rni va ahamiyatini oshirish;

- jismonan sog'lom, ma'naviy etuk va har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalashda oilaning rolini kuchaytirish va shu

maqsadda oila institutining ta'lim hamda tarbiya muassasalari bilan o'zaro amaliy hamjihatligini mustahkamlash, ularning yaqin va samarali hamkorligini ta'minlash¹.

Atoqli shoir Abdurahmon Jomiy shunday yozadi:

Gul davrida ich bodanikim, oqil emastur,

Har kimki, bu kun dunyoda hushyor topilsa.

Ma'nosi: Gul davridan murod yana o'sha umr bahori, ya'ni kishining ilm o'rganib, hunar egallaydigan yoshlik davri va boda, ya'ni maydan maqsad ma'rifatdir. Binobarin, bu baytni bahorni ichkilikbozlik qilib ko'ngilni aynitib, boshingni og'ritib o'tkaz, deb emas, balki umrdan yaxshi hosil olish uchun uning gul davridagidek gullaydigan hosilga zamin tayyorlovchi yoshlik davrida ichkilik emas, ma'rifat bodasini ich, kimki bu dunyoda ichkilik tufayli es-hushini yo'qotmagan bo'lsa-yu, hunar o'rganib ilm olib haqiqat sirlarini bilishga intilib, kamolot hosil etishga harakat qilmasa, uni aqlli kishi deb bo'lmaydi.

Darhaqiqat, farzandlarimizni ulug' bobokalonimiz Abdurahmon Jomiy aytganidek, aqliraso etib tarbiyalash har birimiz uchun ham qarz, ham farzdir.

Xulosa qilib aytganda, biz asrlar davomida sayqal topib kelgan sharqona oila madaniyatiga suyansak, uning hayotbaxsh o'gitlaridan baxramand bo'lsak va ajdodlarimiz kabi oilani muqaddas dargoh, Vatan ichidagi Vatan deb bilsak jamiyatimiz taraqqiyotning yuksak cho'qqisini zabt etadi, zaminimizda tom ma'nodagi insoniylik hukmron bo'ladi.

Yuqoridagilar bayon etilgach, o'qituvchi tomonidan talabalarga shart-sharoitlar yaratilib, dars o'tilayotgan mavzu bo'yicha erkin, ochiq o'ylash va o'z fikrini bemalol, hech bir to'siqlarsiz bayon etishiga imkoniyat berishni, ya'ni shu joyda «Klaster» uslubi (metodi)dan foydalanishni tavsiya etamiz. Bunda butun guruh, yoki bir necha nafar talaba ishtirok etishi mumkin. Bu jarayon uchun 10 daqiqa vaqt ajartish mumkin.

Oilaviy munosabatlar, oilaviy mulk muammolari

O'qituvchi mavzuni yoritishda, oilaviy munosabatlar, oilaviy mulk muammolari chuqur tahlil qilishi maqsadga muvofiq. Shu bois biz ham bu borada kengroq to'xtalib o'tishni lozim topdik.

¹ "Мустахкам оила йили" давлат дастури тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори. "Халқ сўзи" газетаси, 2012 йил 28 февраль.

Dunyodagi yirik va nufuzli xalqaro tashkilotlardan biri – Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)ning Bosh Assambleyasi 1994-yildan e'tiboran har yili 15 may kunini Xalqaro oila kuni sifatida nishonlashga qaror qilgani tahsinga loyiqdir.

1948 yil 10 dekabrda Amerika Qo'shma Shtatlarining Nyu-York shahrida BMT Bosh Assambleyasining 217A(III) rezolyusiyasi bilan qabul qilingan "Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi" 16-moddasining 3-qismida "Oila jamiyatning tabiiy va asosiy hujayrasi sanaladi va jamiyat hamda davlat tomonidan himoya qilinishga haqli"¹ deb belgilangan.

Yuqoridagi faktlardan ham ko'rinib turibdiki, barcha mamlakatlarda jamiyatni ravnaq toptirish maqsadida oilalarni mustahkamlash, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash tadbirlari uzluksiz olib boriladi. Bu borada yapon tajribasi ko'pchilikka manzur bo'lmoqda. Ma'lumki, Yaponiya kichik bir orolda joylashgan bo'lib, aholisi eng ko'p mamlakatlardan biridir, bu erda tabiiy boyliklarni deyarli uchratmaysiz, qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun esa yer maydonlari taqchilligi yoqqol seziladi. Biroq shunga qaramay kun chiqar yurt mamlakati jahondagi eng rivojlangan davlatlar sirasiga kiradi. Bu yerda mehnat oliy qadriyat hisoblanib, yoshlar ongiga mehnatsevarlik, intizomlilik, jamoaviylik g'oyalari singdiriladi. Bu dolzarb vazifa ijrochisi bo'lmish ta'lim sohasi xodimlari yoshlarni guruhliy birdamlik asosida tarbiyalaydilar. Natijada har bir fuqaro jamoaning mag'lubiyatidan aziyat chekib, uni bartaraf etishga harakat qilsa, g'alabasi va muvaffaqiyatidan ruhlanib, uni yanada takomillashtirishga bor kuch va imkoniyatini sarflaydi. Bizda ham mehnat qadriyat sanaladi, ammo ayrim kishilar mehnatning tagi rohat yekanligini tushunib etishmaydi, oqibatda mehnat qilishni xushlamaydigan oilalarda iqtisodiy qiyinchiliklar yuzaga qalqib chiqadi va bu salbiy holat o'zaro munosabatlarni chigallashtirib, oilaning parokanda bo'lishiga olib keladi. Shu bois o'qituvchi oilaviy munosabatlar borasidagi muammolarni bartaraf etishning samarali usullaridan biri mehnat ekanligini tushuntirib berishi lozim.

O'qituvchi tomonidan dars mobaynida oilaning turlariga alohida e'tibor qaratilishi va ularning ijobiy va salbiy jihatlarini tahlil qilib berilishi mashg'ulot samaradorligini oshiradi. Shu sababli biz hozirgi zamonda ustuvor bo'lgan oila turlarini keltirib o'tishni lozim topdik. Bugungi kun oilalarini monogom oilalar, deb ataymiz. Monogom oilalar bir necha turlarga bo'linadi:

¹ "2012 йил Ватанимиз тараққиётини янги босқичга кўтарадиган йил бўлади" мавзусидаги маърузаларни ўрганиш бўйича ўқув қўлланма. Ўқитувчи, Т.: 2012 йил. -225-б.

- to‘liq, noto‘liq va qayta tuzilgan oilalar (to‘liqligiga ko‘ra);
- nukler (ota-ona va bolalar) va ko‘p bo‘g‘inli (ikki va undan ortiq avlod vakillaridan iborat) oilalar (bo‘g‘in soniga ko‘ra);
- farzandsiz, bir bolali, ikki bolali, uch-to‘rt bolali, 5 va undan ortiq bolali oilalar (bola soniga ko‘ra):
- ishchi, dehqon, ziyoli, aralash oilalar (ijtimoiy kelib chiqishiga ko‘ra);
- oliy, tugallanmagan oliy, o‘rta maxsus, o‘rta, tugallanmagan o‘rta, turli ma’lumotli oilalar (er-xotinlarning ma’lumotiga ko‘ra);
- yosh oilalar, o‘rta yosh, etuk yoshdagi oilalar (oilaning tashkil topgan vaqtiga ko‘ra);
- shaharlik, qishloqlik va aralash oilalar (yashash joyiga ko‘ra);
- er yoki xotin yetakchi bo‘lgan oilalar, hamjihatlikdagi (biarxat) oilalar (oila “xo‘jayni”ning kimligiga ko‘ra);
- avtoritar, demokratik, liberal va aralash tipdagi oilalar (er-xotin munosabatlariga ko‘ra);
- bir millatli yoki baynalmilal oilalar (er-xotinning millatiga ko‘ra);
- sinovdagi oila, nikohdagi oila, nikohdan tashqari oila (oilaning huquqiy jihatdan rasmiylashtirilganligiga ko‘ra).

Oilalar bir necha turlarga bo‘linganidek, oilaviy munosabatlarda ham tafovut mavjud. O‘qituvchi bu farqni ko‘rib chiqishdan oldin talabalarga muloqot madaniyati nima ekanligini tushuntirib berishi kerak bo‘ladi. Muloqot madaniyatini asosan 3 ta turga ajratish mumkin, bular:

- o‘z-o‘zini bilish va boshqa odamlarni tushunish qobiliyati;
- kishilarning xulqi va holatiga mos holda munosabat bildirish qobiliyati;
- har bir kishiga nisbatan uning shaxsini individual xususiyatlariga eng maqbul keladigan shakli, usuli va stillarini tanlay olish qobiliyati.

Oilaviy munosabatlarda til asosiy rolni o‘ynaydi, desak hato bo‘lmaydi, shu bois o‘qituvchi talabalarga o‘zaro munosabatlarning asosi bo‘lmish til to‘g‘risida ham quyidagi ma’lumotlarni berib o‘tsa foydadan xoli bo‘lmaydi, deb hisoblaymiz.

Millatni dunyoga millat qilib tanitadigan muhim belgilarning eng asosiysi tildir. Yer yuzida olti mingdan ortiq millat, elatlar mavjud. Ular bir-birlari bilan o‘z tillarida so‘zlashganliklari bois millat, elat, degan nomga egadirlar. Tilsiz xalq, oila bo‘lmaydi, xalqsiz, oilasiz esa tilning mavjud bo‘lishi mumkin emas. Yurtboshimiz I.A.Karimov bu haqda fikr yuritir ekan: «O‘zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi,

avlodlar o'rtasidagi ruhiy-ma'naviy bog'liqlik til orqali namoyon bo'ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, eng avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili – bu millatning ruhidir»¹, deydi. Shu bois biz millat, til va oilani o'zaro yakdil tushuncha sifatida talqin etamiz.

Buyuk nemis tilshunos olimi V.Gumbol't "Til – xalq ruhi"dir deydi. Darhaqiqat, til kishilar, oila a'zolari o'rtasida aloqa vositasi bo'lib qolmasdan, insonning qaysi millatga mansubligini va qaysi milliy madaniy-ma'rifiy qadriyatlarni e'zozlashini belgilab beruvchi qudrat hilqatdir.

XIX asrning o'rtalarida boshlangan chorizm va XX asrning 20-yillarida ro'y bergan xudosiz kommunistlar istilosi yana tilimizni arosat ko'chasiga olib kirib qo'ydi. Ular o'zbek millatiga xos oilalarni yo'q qilish, uning ruhini sindirish maqsadida O'zbekiston deb atalmish jannatmakon yurtida rus tilini davlat tili, deb e'lon qilishdi. Rus tilida gaplashish madaniyatli oilalarga xos, degan g'oyani ilgari surib, o'zbeklarni ona tilida so'zlashish baxtidan judo qilishga urinishdi.

1989-yilning 21-oktyabr kuni «O'zbekiston Respublikasining davlat tili haqida»gi Qonuni e'lon qilindi va bir yarim asrlik qaramlikdan so'ng o'zbek tili yana davlat tili maqomini oldi. Hali sobiq ittifoq o'z qudratini yo'qotmagan, kommunistik puch g'oya hukmron bo'lgan mamlakatda bunday ishga qo'l urishga har kimning ham haddi sig'masdi. Ammo Prezidentimiz rahnomaligida o'zbek xalqi o'z haq-huquqlarini, jumladan, jamiyatda o'z ona tili ustuvor bo'lishini talab qilishdek buyuk jasoratni ko'rsatishga o'zida kuch topdi.

1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida Davlat tilining maqomi huquqiy jihatdan aniq belgilanib, mustahkamlanib qo'yildi. Natijada yurtboshimiz aytganidek: «Xalqmizning muqaddas qadriyatlaridan biri bo'lmish ona tilimiz o'zining qonuniy maqomiga va himoyasiga ega bo'ldi. Bu Vatanimiz tarixida tom ma'nodagi buyuk voqea bo'ldi».

Til – millat, oilaning ko'zgusi, ma'naviyati hamdir. U millat, oilaning uzoq o'tmishidan tortib, to bugungi kungacha bo'lgan ulkan davrni o'zida mujassam etuvchi, uning ichki va tashqi ma'naviy qiyofasini yaqqol namoyon etuvchi ulkan ilohiy ne'matdir.

- Oila, - deydi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov, - hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta'minlaydigan,

¹ Каримов И.А. Истиқлол ва маънавият. Т.: Ўзбекистон, 1994. -85-б.

muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga, kelajak nasllar qanday inson bo'lib yetishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'i ekanini tan olish darkor"¹.

Darhaqiqat, farzanlarimizni voyaga etkazadigan, ularni komillik sari etaylaydigan oilaning mustahkamligi mulkiy munosabatlarda ham o'z ifodasini topadi. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng er-xotin o'rtasida nikoh shartnoma deb ataluvchi rasmiy kelishuv yuzaga keldi. Bu kelishuvning joriy etilishi turli xildagi oilaviy kelishmovchiliklarning oldini oldi. Mazkur shartnoma nikohga qadar yoki nikohdan so'ng yozma ravishda tuzilib, notarial tartibda tasdiqlanadi.

“Nikohlanuvchi shaxslarning yoki er va xotinning nikohda bo'lgan davrida va (yoki) er va xotin nikohdan ajratilgan taqdirda, ularning mulkiy huquq hamda majburiyatlarini belgilovchi kelishuv nikoh shartnomasi deyiladi.

Er-xotin nikoh shartnomasi o'zaro moddiy ta'minot berish, oila xarajatlarini ko'tarish, bir-birlarining daromodlarida ishtirok etish, boshqa shaxslar bilan mulkiy shartnomalar tuzish, birgalikda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarini belgilab olishga, nikohdan ajralganda er va xotindan har biriga beriladigan mulkni aniqlab olishga, shuningdek, nikoh shartnomasiga er va xotinning mulkiy munosabatlariga oid boshqa qoidalar kiritiladi².

Qonunga ko'ra, er-xotinning nikoh davrida topilgan (shaxsiy kiyimlar, nikohgacha bo'lgan paytda o'ziga tegishli bo'lgan, nikoh davridagi hadya, meroslar va bepul bitimlar orqali olingan mol-mulk shaxsning o'z mulki hisoblanadi) va nikohgacha bo'lgan davrdagi birgalikdagi jamg'arma hisobiga olingan mol-mulklari ularning umumiy mulki hisoblanadi.

“Nikohdan ajralgan er va xotinning umumiy mol-mulkini bo'lish to'g'risidagi talabiga nisbatan uch yillik da'vo muddati qo'llaniladi. Er va xotinning umumiy mulkini bo'lishda hamda ularning shu mol-mulkkadagi ulushlarini aniqlashda er va xotinning ulushlari teng hisoblanadi. Er va xotinning umumiy mol-mulkini bo'lishda er va xotinning umumiy qarzlari ularga belgilangan ulushlariga mutanosib ravishda har ikkisi o'rtasida taqsimlanadi”³.

¹ Каримов И.А. Оила фаровонлиги – миллат фаровонлиги. / Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида: Т.6. Т.: Ўзбекистон, 1998. – 400-б.


² “2012 йил Ватанимиз тараққиётини янги босқичга кўтарадиган йил бўлади” мавзусидаги маърузаларни ўрганиш бўйича ўқув қўлланма. Ўқитувчи, Т.: 2012. -233-б.

³ Ўша китоб, -232-б.


Umuman olganda mamlakatimizda er-xotinning mulkiy munosabatlari huquqiy jihatdan qonunlashtirib qo'yilgan. Dars davomida ana huquqiy jihatlarga e'tibor berish talab etiladi, chunki mulkiy munosabatlarning me'yorida bo'lishi oila mustahkamligini ta'minlab beruvchi eng muhim omillardan biridir.

Ma'lumki, Prezidentimizning "Mustahkam oila yili" Davlat dasturi to'g'risida"gi qarorida kelgusida amalga oshiriladigan ustuvor yo'nalishlar belgilab berildi. Amaldagi qonun hujjatlariga oila institutini rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan zarur o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, yosh oilalarga e'tibor va g'amxo'rlikni kuchaytirish, ularni huquqiy va ijtimoiy himoya qilishni ta'minlash, moddiy va ma'naviy jihatdan keng qo'llab-quvvatlash, jamiyatimiz va kundalik hayotimizda mahalla institutining rolini yanada kuchaytirish va maqomini oshirish, yosh oilalarni qo'llab-quvvatlash hamda shakllantirishda ularning ta'sirini kuchaytirish, yosh oilalarga zarur ko'mak va yordam berish, oila, birinchi navbatda, ehtiyojmand oilalarning muammolarini hal etishda davlat va jamiyat tomonidan g'amxo'rlikni yanada kuchaytirish, "Sog'lom ona — sog'lom farzand" tamoyiliga muvofiq oila salomatligini, onalik va bolalikni muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirish shular jumlasidandir. Ushbu maqsadlarni ro'yobga chiqarish uchun 2012 yilda 1 trillion 478,7 milliard so'm va 114 million AQSh dollari miqdorida mablag' sarflanishi ko'zda tutilgan.


Dars o'tishda quyidagi slaydlardan foydalanishni tavsiya etamiz:




Ibrat




Ota-onaning farzandlariga namunasi




Oilada vujudga kelishi mumkin bo'lgan illatlar



Oilaning ma'naviy dunyosini takomillashtirish yo'llari



O'zaro munosabatlar barqarorligi omili



Oilada ma'naviyatning singdirilishi



18

Dars so'ngida mavzu bo'yicha yuzaga kelgan muammolarni hal etishga kirishish talab etiladi. Bunda talabalarga oila instituti muammolari xususida har tomonlama fikr yuritishga imkon beriladi, bu holat talabalarda o'z tasavvurlari va g'oyalaridan ijobiy foydalanish borasida ma'lum ko'nikma hamda malakalarni hosil qilish imkonini beradi va oila borasidagi muammolarning yechimini topishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa

Oila ijtimoiy-iqtisodiy va tabiiy-tarixiy jarayonda vujudga kelgan kichik ijtimoiy birlikdir. Bu jarayoni, tabiiyki, jamiyat olg'a surgan talab va ehtiyojlar taqozosi bilan ijtimoiy qonuniyat asosida rivojlangan, mazmunan boyigan, ayni zamonda oilaning burchi, vazifasi, mas'uliyati, jamiyatdagi tutgan o'rni kengayib borgan. Ayniqsa, mustaqillik yillarida oilaga juda katta e'tibor qaratilib, unga vatan ichidagi vatan sifatida yondashildi.

Xususan, istiqlolimizning dastlabki yillaridan boshlab, ya'ni 1993 yilda bo'lib o'tgan o'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining X sessiyasida yurtboshimiz I.A.Karimov tomonidan xalqimiz oldiga eng muhim ustuvor vazifa sifatida quyidagilar qo'yildi: «Eng muhim vazifa – xalqchil, adolatparvar jamiyatni vujudga keltirish. Bu jamiyat poydevorini, eng avvalo, boy va badavlat, mehnat qadrini biladigan, ma'naviy sog'lom va madaniy saviyasi baland ming-minglab oilalar tashkil etadi»¹.

Darhaqiqat, oila jamiyat poydevori bo'lib, uning mustahkamligi jamiyatning barqarorligini, farovon va tinch-totuv hayotni ta'minlovchi buyuk kuchdir. SHu sababli oila masalasi Vatanimizda davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Natijada, yosh davlatimizni rivojlantirish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish ishlari oilalarni moddiy, ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlashdan boshlandi. Bu holat, o'z navbatida, samara bermay qolmadi, albatta. O'zbekiston mustaqillikning o'tgan yillari davomida ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlar qatoriga qo'shildi, butun dunyoni larzaga solgan iqtisodiy krizislar ham oilalarimizning barqarorligi bois bizni chetlab o'tdi.

«Oilada eng asosiy narsa – bir-birini tushunish, qadrlash va e'zozlashdir. Oilada ikki yosh bir butun bo'ladi, muhabbat – nikoh ishlarini mustahkamlaydigan, axloqiy mas'uliyatni yanada oshiradigan hissiyotdir»². Er va xotinning bir-biriga bo'lgan muhabbatini esa oilada vujudga kelgan farzandlar mustahkamlovchi vositadir.

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. – Т.: Ўзбекистон. 1993. -14-б.

² Юнусов Э., Исмоилов Ф. Одабийлик сабоқлари.. –Т.: Қомуслар бош тахририяти. 1997. - 95-б.

O'zbekistonda oila jamiyatning uzviy qismi sifatida tan olinib, farzandli bo'lish, uning kamoloti uchun yashash oila qurishning muhim sharti hisoblanadi. Farzandlar esa oila mustahkamligining garovidir. O'zbek xalqining ajoyib fazilatlaridan biri uning bolajonligidir. Shuning uchun ham oila qurgan yoshlar tez orada farzandli bo'lish orzusi bilan yashaydi. O'z farzandlariga yaxshi ta'lim-tarbiya berishga harakat qiladilar. Bu halqimizning milliy xususiyatlaridan biri bo'lib, oilaning ajralib ketish ehtimolini keskin pasaytiradi. Shu nuqtai nazardan, xorijiy mamlakatlarda oilaviy ajralishlar sonining oshib borayotganligi, bizda esa, aksincha oilaviy munosabatlarda tobora barqarorlik ta'minlanayotganligi er-xotinni bog'lab turuvchi, ularni yakdil maqsad sari harakatga keltiruvchi omil – farzandlarning dunyoga kelishi, desak xato qilmagan bo'lamiz.

Oilada farzandning dunyoga kelishi, jamiyatimiz uchun munosib bo'lib voyaga yetishi faqat er va xotinning mehr-oqibati, hurmat-izzati, oilaning mustahkamligi uchungina emas, balki kelajagi buyuk O'zbekiston davlati va xalqi uchun ham zururiyat hisoblanadi. Oila mustahkamligi – davlat tayanchi, deb bekorga aytmagan xalqimiz. Shu bois mustaqillik yillarida oila, oilaviy munosabatlar va yosh avlod tarbiyasiga har qachongidan ham ko'proq e'tibor qaratilmoqda.

G'oyat serqirra va keng qamrovli tushuncha hisoblanmish oila insonlarning qalb mehri va muhabbat rishtalari bilan bog'langan. Har tomonlama himoyalangan oila esa davlatga, xalqqa hamda ularning manfaatlari yo'lida xizmat qiladi. Oilada osoyishtalik, totuvlik, birdamlik mavjudligi bola tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Aynan shu omil sabab ertangi kunni o'ylab ish ko'rayotgan mamlakatlarda juda ko'p qonunlar oilani, onalik va bolalikni muhofaza qilishga qaratilmoqda.

Xullas, o'qituvchi «Falsafa» (“Etika”) fanining “Oila, fuqarolik jamiyati va davlatning axloqiy asoslari hamda shaxs axloqiy tarbiyasi” deb nomlangan 10-bobining “Oilaning ilk axloqiy maskan sifatidagi o'rni” mavzusini yoritishda yuqorida ko'satib o'tilgan masalalarga alohida e'tibor qaratmog'i kerak.

Bundan tashqari, dars jarayonida oilaning bardavomligini saqlovchi, oilaviy munosabatlarga sayqal beruvchi vafo, sharm-hayo, poklik (til pokligi, qalb pokligi, jism pokligi) kabi insoniy kategoriyalar mohiyati ham ochib berilishi maqsadga muvofiqdir. Chunki bu insoniy fazilatlar umuminsoniy tushunchalar hisoblanib, yosh avlod tomonidan ularni to'g'ri anglash, kundalik hayotga tatbiq etish oilada ezgu munosabatlarni shakllantirishga, rivojlantirishga, oila a'zolarini or-nomusli bo'lishga,

ozodalikka, halollikka, poklikka, vijdonlilikka, mehr-muruvvatga o'rgatadi, bir so'z bilan aytganda, oila mustahkamligini ta'minlaydi.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Oila tushunchasining mohiyati va falsafiy mazmuni nimalardan iborat?
2. Oila to'g'risidagi milliy qadriyatlarning umuminsoniy qadriyatlar bilan munosabati haqida nimalar bilasiz?
3. Nukler, to'liq, noto'liq va qayta tuzilgan oilalar deganda nimani tushunasiz.
4. Er-xotin va bo'lajak turmush o'rtoqlar o'rtasida tuziladigan rasmiy kelishuv nima deb ataladi va undan ko'zlangan maqsad nimalardan iborat?
5. Buyuk nemis tilshunos olimi V.Gumbolt nimaga xalq ruhi, deb ta'rif beradi va uning oilaviy munosabatlardan tutgan o'rnini nimalardan iborat?
6. Oila instituti bilan bog'liq eng dolzarb muammolarni sanab o'ting va ularning echimini topish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar nimalardan iborat ekanligini ayting.
7. Oila so'zining lug'aviy manosi nimalardan iborat?
8. Oila va jamiyat munosabatidagi ijobiy va salbiy jihatlarni sanab bering.

Test savollari:

1. BMTning Bosh Assambleyasi tomonidan qaysi kun va qachon Xalqaro oila kuni deb e'lon qilingan?

- a) 15 may, 1994 yildan e'tiboran.
- b) 21 avgust, 1993 yildan e'tiboran.
- c) 8 mart, 1995 yildan e'tiboran.
- g) 16 dekabr, 1998 yildan e'tiboran.

2. Bugungi kun oilalarni qanday nom bilan ataymiz?

- a) patrialxat oilalar.
- b) matrialxat oilalar.
- c) monogom oilalar.
- g) aralash turdagi oilalar.

3. Oilaviy muloqot madaniyatini asosan necha turga ajratish mumkin?

- a) 3 ta turga.
- b) 4 ta turga.
- c) 5 ta turga.
- g) 6 ta turga.

4. «O'zbekiston Respublikasining davlat tili haqida»gi Qonuni qachon qabul qilingan?

- a) 1991 yilning 31 avgustida.
- b) 1992 yilning 8 dekabrda.
- c) 1990 yilning 5 mayida.
- g) 1989 yilning 21 oktyabrda.

5. Nikoh shartnomasiga berilgan izohni toping.

a) er va xotinning qonuniy va shariy nikohda bo'lgan va bo'lmagan davridagi mulklarini taqsimlab berish bo'yicha kelishuv nikoh shartnomasi deyiladi.

b) er va xotin o'rtasida ijtimoiy, ma'naviy jihatdan hisobga olingan holda tuzilgan kelishuv nikoh shartnomasi deyiladi.

c) nikohlanuvchi shaxslarning yoki er va xotinning nikohda bo'lgan davrida va (yoki) yer va xotin nikohdan ajratilgan taqdirda, ularning mulkiy huquq va hamda majburiyatlarini belgilovchi kelishuv nikoh shartnomasi deyiladi.

g) barcha javoblar to'g'ri.

6. O'zbekisdan mavjud bo'lgan oilalar soni qanchani tashkil etadi?

a) 7 million ortiq.

b) 8 milliondan ortiq.

c) 9 milliondan ortiq.

g) 5 milliondan ortiq.

7. Nukler oilalar deganda nimani tushunasiz?

a) ota-ona va bolalardan iborat oilalar.

b) ota-ona, buva-buva va farzandlardan iborat oilalar.

c) nikohsiz, o'zaro kelishuv asosida qurilgan oilalar.

g) qonuniy nikoh asosida vujudga kelgan oilalar.

8. Ko'p bo'g'inli oilalar kimlardan tashkil topadi?

a) bir necha nikoh asosida tug'ilgan bolalar va ota-onalardan.

b) baynalmilal oila vakillaridan.

c) bir avlod vakillaridan.

g) ikki va undan ortiq avlod vakillaridan.

9. Respublikamizda har yili o'rtacha qancha nikoh rasmiylashtiriladi?

a) 115 mingdan ortiq.

b) 208 mingdan ortiq.

c) 170 mingdan ortiq.

g) 500 mingdan ortiq.

10. «Chayld fri» so‘zi qanday ma’noni anglatadi?

- a) farzandsiz jamiyat sari.
- b) shartnoma asosidagi oila.
- c) yosh oilalarga e’tibor.
- g) hamma narsa bolalarga.

11. Oilada eng asosiy narsa bu ...

- a) ota-onaga g‘amxo‘rlik qilish.
- b) begonalashmaslik.
- c) moddiy tomondan qo‘llab-quvvatlash.
- g) bir-birini tushunish, qadrlash va e’zozlash.

12. Er-xotinning millatiga ko‘ra oilalar qanday turlarga bo‘linadi;

- a) monogom oilalarga.
- b) bir millatli yoki baynalminal oilalarga.
- c) ko‘p millatli oilalarga.
- g) aralash millatli oilalarga.

13. “Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasining qaysi moddasi va qaysi qismida “Oila jamiyatning tabiiy va asosiy hujayrasi sanaladi va jamiyat hamda davlat tomonidan himoya qilinishga haqli” deb belgilab qo‘yilgan?

- a) 14-moddaning 5-qismida.
- b) 15-moddaning 4-qismida.
- c) 16-moddaning 3-qismida.
- g) 17-moddaning 2-qismida.

Adabiyotlar

1. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Т.: Маънавият, 2008.
2. Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. – Т.: Ўзбекистон, 1993.
3. Каримов И.А. Оила фаровонлиги – миллат фаровонлиги. /Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида: Т.6. -Т.: Ўзбекистон, 1998.
4. Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли. –Т.: Ўзбекистон, 1992.
5. Каримов И.А. Истиқлол ва маънавият. Т.: Ўзбекистон, 1994.
6. “2012 йил Ватанимиз тараққиётини янги босқичга кўтарадиган йил бўлади” мавзусидаги маърузаларни ўрганиш бўйича ўқув қўлланма. –Т.: Ўқитувчи, 2012.
7. Юсуф Хос Хожиб. Қутадғу билиг, – Т.: Фан, 1972.
8. Юнусов Э., Исмоилов Ф. Одамийлик сабоқлари.. –Т.: Қомуслар бош таҳририяти, 1997.
9. “Мустаҳкам оила йили” давлат дастури тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори. “Халқ сўзи” газетаси, 2012 йил 28 февраль сони.
10. Владимир Нырко Дети против отцов, Труд-7. 2011 г. 21 июль.
11. Интернет сайтлари: www.google.uz, www.yandex.ru.

Muharrir Sidikova K.A.